

## **IT SOHASINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA YORITILISHI**

**Turg'unova E'zoza Ilg'or qizi**

Xabar.uz axborot portal jurnalisti va  
O'zJOKU magistranti

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini rivojlantirib, O'zbekistonni axborot texnologiyalari sohasidagi mintaqaviy markaz – IT-xabga aylantirish hamda respublikada raqamli iqtisodiyot va “Elektron hukumat” tizimini joriy etish natijasida erishilgan yutuqlar, imkoniyat va imtiyozlardan xalqimizni boxabar etishda ommaviy axborot vositalarining roli beqiyos. Axborot texnologiyalari mavzusida qalam tebratuvchi jurnalistdan avvalo yuksak bilim va mahorat talab etiladi. Chunki u nafaqat o'z kasbi sir-asrорlari, balki aytি olamiga doir eng muhim ma'lumotlarni bilishi shart. Shunda zamonamiz IT-gigantlari faoliyati, ular taqdim etayotgan mahsulotlar, kamchilik va raqobat choralari haqida bemalol ijod qila oladi. Axborot texnologiyalari yangiliklarini aholiga yetkazaman, degan jurnalistga bunga qiziqishning o'zi kamlik qiladi. Chunki bu olam ichiga chuqurroq kirish, soha mutahassislari faoliyatini izchil kuzatishi lozim.

**Kalit so'zlar:** IT, axborot texnologiyalari, Elektron hukumat, Bir million dasturchi, Raqamli O'zbekiston – 2030, Harakatlar strategiyasi, BPO, xabar.uz, my.gov.uz, jurnalistika.

Barchamizga ma'lumki aloqa, axborotlashtirish va IT-texnologiyalar sohasini rivojlantirish bugungi kunda O'zbekiston davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'naliishlaridan biri. Boisi ushbu sohalarning rivojlanishi xalqimizning turmush farovonligini oshirishga va qolaversa, mamlakatimizning iqtisodiy o'sishiga ham xizmat qiladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda telekommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, aloqa infratuzilmasini takomillashtirish, “Elektron hukumat” tizimining axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini yaratish, iqtisodiyotni raqamlashtirish kabi masalalarga Hukumat darajasida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Shu o'rinda aytish joizki, mazkur tizim mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to'g'risida” va “Elektron hukumat to'g'risida”gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi “O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori va boshqa

qonunchilik hujjalari asosida amalga oshirib kelinmoqda.<sup>40</sup>(<https://mitc.uz/uz/pages/egovernment/2074>)

Elektron hukumat o'zi qanday tizim degan savolga javob beradigan bo'lsak, u davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimidir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha xarakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida" 2020-yil 2-martdagi PF-5953-sonli Farmoniga muvofiq elektron hukumatning axborot tizimlari va resurslarining yagona reyestrini yuritish, yagona identifikatorlar, ma'lumotnomalar va tasniflagichlar ro'yxatlarini shakllantirish, ma'lumotlarni boshqarish axborot tizimini joriy qilish orqali elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining o'z faoliyati bo'yicha jamoatchilik oldida elektron hisobot berishi tartibini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi.<sup>41</sup> (<https://lex.uz/docs/-4751561>)

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi elektron hukumat sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi esa elektron hukumat sohasidagi vakolatli organ bo'lib, elektron hukumat sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi.

Bundan tashqari, Elektron hukumat tizimi loyihalarini amalga oshirishning me'yoriy-metodik ta'minlanishini tashkil qilish, davlat organlarida foydalanilayotgan axborot tizimlari, axborot resurslari va ma'lumotlar bazalarini ishlab chiqish va integrasiyalashda "Elektron hukumat tizimini rivojlantirish" markazi ham ahamiyat kasb etadi. Boshqa Davlat organlari esa elektron hukumat sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi.<sup>42</sup> (<https://mitc.uz/uz/pages/egovernment/2074>)

2022-yilda O'zbekiston va Koreya o'rtasida raqamli hukumat sohasida tajriba va bilim almashish, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi loyihalarni amalga oshirishdagi hamkorlik natijalari bilan tanishish maqsadida Axborot

<sup>40</sup> <https://mitc.uz/uz/pages/egovernment/2074>

<sup>41</sup> <https://lex.uz/docs/-4751561>

<sup>42</sup> <https://mitc.uz/uz/pages/egovernment/2074>

texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sherzod Shermatov O'zbekiston-Koreya ekspert guruhi rahbari Ko Taek-Jin bilan uchrashuv o'tkazdi.

Bundan tashqari, mazkur uchrashuvda, O'zbekistonda sun'iy intellektni rivojlantirish, BMT reytingida O'zbekistonning elektron hukumati mavqeini yanada oshirish, kelgusida o'zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish va ikki davlat o'rtaida samarali hamkorlikni yanada yaxshilash masalalari ko'tarildi. Korea kompaniyalari bilan hamkorlikda IT va BPO xizmatlari eksportini rivojlantirish, O'zbekistondagi yoshlarni AKT sohasiga kengroq jalg qilish hamda yuqori maoshli ish bilan ta'minlash kabi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish masalasi muhokama qilindi.<sup>43</sup> (<https://mitc.uz/uz/news/view/4141>)

Albatta bu harakatlarning natijasi o'laroq, kelgusi yillardagi reytingda mamlakatimiz yanada yuqori pog'onalarini zabit etishiga umid qilamiz. Qolaversa, bu borada biz ommaviy axborot vositalari xodimlarining ham xizmati talaygina.

Birgina misol, o'tgan yil davomida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali ([my.gov.uz](http://my.gov.uz))da 68 ta yangi onlayn xizmatlar ishga tushirilib, umumiyligi elektron davlat xizmatlari soni 368 taga yetdi. Shulardan 242 tasi tadbirkorlar uchun mo'ljallangan bo'lsa, 225 tasi fuqarolarimiz uchun joriy qilingan. 240 ta xizmatdan esa bepul foydalanish imkoniyati mavjud. Barcha pullik xizmatlardan [my.gov.uz](http://my.gov.uz) orqali foydalanilganda esa 10 foiz chegirma belgilangan.<sup>44</sup> (<https://youtu.be/1MVM51xJvSc>)

Mana shunday xizmatlar haqida, yaratilayotgan qulayliklar haqida xalqimiz mass media orqali boxabar bo'lishmoqda. Shu bois ham 2022-yilda 12 milliondan ziyod aholi va tadbirkorlarimiz elektron davlat xizmatlaridan [my.gov.uz](http://my.gov.uz) orqali foydalanishga muvaffaq bo'lishdi.

[My.gov.uz](http://my.gov.uz) xizmatlarining bu qadar ommalashishi ham bejizga emas. Ayniqsa, yurtdoshlarimiz bu kabi ma'lumotlardan nafaqat portalning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalaridan, balki [xabar.uz](http://xabar.uz) axborot portali orqali ham doimiy ravishda xabardor bo'lib, ma'lum bir ko'nikmalarga ega bo'lib borishsa, O'zbekiston 24 va Uzreport tv telekanallarining to'g'ridan-to'g'ri efirlari orqali esa birinchilardan bo'lib boxabar bo'lishmoqda. Bunday shaffoflik esa xalq va davlat idoralarini bir-biri bilan yanada yaqinroq qildi.

Bugungi kunda har bir oilaviy poliklinika, vrachlik punktlari hamda ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarda elektron tizim bilan ishlaydigan hamshiralar jalb qilingan. Sog'liqni saqlash tizimi xodimlarining axborot texnologiyalari

<sup>43</sup> <https://mitc.uz/uz/news/view/4141>

<sup>44</sup> <https://youtu.be/1MVM51xJvSc>

sohasida zamonaviy bilimlarni egallashlari hamda tibbiyot sohasini raqamlashtirish ishlarini samarali amalga oshirish maqsadida Toshkent viloyatining Chirchiq shahridagi Raqamli texnologiyalar o'quv markazida tibbiyot xodimlarining IT sohasida malakasini oshirish yo'lga qo'yildi.<sup>45</sup> (<https://mitc.uz/uz/news/3307>)

Shuningdek, "Radioaloqa, radioeshittirish va televidenie markazi" DUK rahbar-xodimlari malakasini oshirish uchun ham 5 kunlik o'quv seminari bo'lib o'tdi. Tadbir ishtirokchilariga O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri o'rinosi J. Maxsudov, "RRTM" DUK bosh direktori M. Sobirov hamda "M-Factor" loyihasi asoschisi H. Mamasaidovlar tomonidan esdalik sovg'alari va sertifikatlar topshirildi.<sup>46</sup> (<https://mitc.uz/uz/news/view/3696>)

Respublikada raqamli industriyani jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi ishlab chiqildi.<sup>47</sup> (<https://lex.uz/docs/-5030957>)

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 500 ming nafar yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o'qitish ham ko'zda tutilgan edi. 2019-yilning 21-noyabr kuni Toshkent shahridagi Inha universitetida katta majlislar zalida "Bir Million O'zbek Dasturchilari" loyihasini ishga tushirish marosimi bo'lib o'tdi. Marosimda O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri Abdulla Aripov, Birlashgan Arab Amirliklarining hukumat va kelajak ishlari bo'yicha vaziri Muhammad bin Abdulloh al-Qarqoviy, Birlashgan Arab Amirliklari sun'iy intellekt texnologiyalari vaziri Umar bin Sulton al-Olama, O'zbekistonda Respublikasi Xalq Ta'limi Vaziri Sherzod Shermatov, O'zbekistonda Respublikasi Tashqi savdo va investitsiyalar vaziri Sardor Umurzoqov, O'zbekiston Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi vakillari ishtirok etishdi.<sup>48</sup> (<https://www.texnoman.uz/post/bir-million-ozbek-dasturchilari-loyihasi-ishga-tushirildi.html>)

O'sha yili "Yangi O'zbekiston" gazetasining 10-oktyabr kungi 194-sonida "Bir million dasturchi" loyihasi – amalda" nomli maqola chop etildi. Mazkur

<sup>45</sup> <https://mitc.uz/uz/news/3307>

<sup>46</sup> <https://mitc.uz/uz/news/view/3696>

<sup>47</sup> <https://lex.uz/docs/-5030957>

<sup>48</sup> <https://www.texnoman.uz/post/bir-million-ozbek-dasturchilari-loyihasi-ishga-tushirildi.html>

maqolada respublikamizda "Bir million dasturchi" yirik loyiha doirasida Vazirlik va tizimdagи tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan ishlар bat afsil ko'rib chiqilgan.<sup>49</sup> (<https://mitc.uz/media/cd2c8a46-656d-0529-f357-974db62547cf.jpg>)

Aytish joizki, bugungi kunda insonlarning dunyoqarashi kun sayin o'zgarib bormoqda. Shu bois ham ularni hayratlantirish, tur mush tarzini butkul o'zgartirib yubora oladigan loyihalarni ishlab chiqish ham tobora qiyinlashib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri ularning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanishi, dunyoda ro'y berayotgan yangiliklar, voqeа-hodisalardan tez xabardor bo'lishidir. Shunga ko'ra, sohada yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda ijodkorlik, kreativlikni yanada rivojlantirish maqsadida yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda. "Bir million dasturchi" kabi bunday loyihalar yoshlarning iste'dodi, ixtirolari hamda g'oyalarini hayotga tatbiq etishda muhim rol o'ynaydi.

Mana shunday loyihalardan xalqimizni boxabar etishda, zamonaviy sohalarning imkoniyatlari haqida ma'lumot berishda albatta ommaviy axborot vositalariga alohida mas'uliyatli vazifa yuklatiladi. Jumladan, kishilik jamiyatida axborotning ko'pgina turlari mavjud bo'lib, ulardan eng muhimi ijtimoiy informatsiyadir. Ijtimoiy informatsiya jamiyat uchun jamiyat xaqidagi xabarlar va ma'lumotlardir.

Jamiyat uchun zarur hisoblanadigan, kishilarni qiziqtiradigan barcha fakt, voqeа va hodisalar informatsion publisistikada o'z ifodasini topadi, shu jumladan hozirgi kundagi eng zamonaviy serdaromad sohalardan biri hisoblangan IT sohasi haqidagi yangilik va ma'lumotlar ham. Aytish joizki, informatsion publisistikasiz matbuotning biror turi mustaqil ish ko'ra olmaydi. Matbuotni informatsiya bilan ta'minlab turishda matbuot nashrlari, radio va televideniye kompaniyalaridan tashqari maxsus informatsion agentliklar ham ish olib boradilar. Dunyodagi barcha informatsiya agentliklari uzuksiz ravishda informatsiya yig'ish va tarqatish bilan shug'ullanadilar. Ular matbuot va radio, televideniyeni doimiy ravishda informatsiya bilan ta'minlab turadilar.<sup>50</sup> (Hozirgi zamon jurnalistikasi. Toshkent. Aloqachi-2008. B.59)

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://mitc.uz/uz/pages/egovernment/2074>
2. <https://lex.uz/docs/-4751561>

<sup>49</sup> <https://mitc.uz/media/cd2c8a46-656d-0529-f357-974db62547cf.jpg>

<sup>50</sup> Hozirgi zamon jurnalistikasi. Toshkent. Aloqachi-2008. B.59

3. <https://mitc.uz/uz/news/view/4141>
4. <https://youtu.be/1MVM51xJvSc>
5. <https://mitc.uz/uz/news/3307>
6. <https://mitc.uz/uz/news/view/3696>
7. <https://lex.uz/docs/-5030957>
8. <https://www.texnoman.uz/post/bir-million-ozbek-dasturchilari-loyihasi-ishga-tushirildi.html>
9. <https://mitc.uz/media/cd2c8a46-656d-0529-f357-974db62547cf.jpg>
10. <https://mitc.uz/media/c7f28316-5860-b067-a5d7-5f2377ea2a29.jpg>
11. Hozirgi zamon jurnalistikasi. Toshkent. Aloqachi-2008. B.59